

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>L.T.Galimullina</b>	
Internal form of phraseological units with the components of precious stones and metals in the english language .....	1213
<b>A.O.Oxunov</b>	
Ingliz va O'zbek tillarida undov so'zlar (interjection)ning ifodalanishi .....	1217
<b>M.U.Mamadjanova</b>	
Linguocultural features of the epithets .....	1221
<b>M.U.Mamadjanova</b>	
Tilshunoslikda epitetning lingvistik tabiatи haqidagi turli qarashlar .....	1224
<b>M.M.Umaralieva</b>	
The significant role of lingua-psychological, pedagogy-didactic, and methodological factors in the planning and implementation of self-directed programs .....	1227
<b>Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov</b>	
Bit-dars texnologiyasi asosida ijodiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi tahlili .....	1232
<b>Sh.Z.Xolmatov</b>	
So'z urg'usining nazariy tavsifi va ahamiyati qiyosiy aspektida .....	1236
<b>M.M.Umaralieva</b>	
A proficient approach to self-directed learning .....	1241
<b>Sh.F.Latipov</b>	
Grammatical lacunas as markers of cultural and linguistic identity .....	1246
<b>Sh.F.Latipov</b>	
Lingvistik lakanani aniqlash haqida ayrim tushunchalar .....	1249
<b>A.A.Qosimov</b>	
Linguo-pragmatic typology of metaphors: the intersection of language and pragmatics .....	1252
<b>A.A.Qosimov</b>	
A linguo-cultural approach to metaphor classification: unveiling cultural concepts through figurative language .....	1258
<b>M.G'Zaylobidinova</b>	
Nodavlat ta'lif muassasalarida ta'lif oluvchilarning ta'lifni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish .....	1264
<b>Д.Ш.Ибрагимова</b>	
Сущность и структура иноязычной коммуникативной компетенции будущих учителей .....	1268
<b>Д.Ш.Ибрагимова</b>	
Эффективность использования театрализации в обучении студентов устойчивым базовым английским фразам для чрезвычайных ситуаций .....	1272
<b>Д.Ш.Ибрагимова, Й.Х.Музаффархонов</b>	
Использование театрализации в процессе формирования речевых навыков у студентов .....	1278
<b>M.N.Abduolimova</b>	
Theory of cognitive and conceptual metaphors .....	1282
<b>M.N.Abduolimova</b>	
Analysis of metaphors used in political texts .....	1286
<b>S.O'.Shermamatova</b>	
Analyses of J.D.Salinger's works .....	1291
<b>X.Zikiryoxonova</b>	
Falsafiy-psixologik romanda tush motivi .....	1295
<b>X.Z.Umarova</b>	
Maktablar – qahramon qalb oynasi .....	1298
<b>Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov</b>	
Significance of motivation in developing students' creative cooperation skills .....	1301
<b>S.S.Usmanova</b>	
Jadidchilik va adabiy muhit xususida .....	1304
<b>V.Abdurakhmanov</b>	
Classification and description of the main alternative issues in social life .....	1307
<b>R.M.Turdimatova</b>	
The intricacies of irony: types and examples .....	1311



UOK: 37.1174.374.3

**NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM OLUVCHILARNING TA'LIMNI  
MODERNIZATSİYALASH ORQALI HAYOTIY KO'NIKMALARINI OSHIRISH**

**МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЕ ОБУЧАЮЩИХСЯ  
ЗА СЧЕТ ПОВЫШЕНИЕ ЖИЗНЕННЫХ НАВЫКОВ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ**

**MODERNIZATION OF STUDENTS' EDUCATION BY IMPROVING LIFE SKILLS IN NON-GOVERNMENTAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

Zaylobidinova Munira G'ulomovna

Farg'onan davlat universiteti ikkinchi bosqich doktoranti

*Annotatsiya*

*Ushbu maqolada asosan nodavlat ta'lismu muassasalarida ta'limga modernizatsiyalash, ta'limga sifetini oshirish va shu orqali o'quvchilarda zaruriy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish haqida so'z yuntilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston ta'limga standartlarga erishish uchun ta'limga sohasida bir qator yutuqlarga, jumladan uzlusiz ta'limga, inklyuziv va gender tenglikka erishgan bo'lsa-da yana bir qancha zaruriy amaliyotlarni jumladan, nodavlat ta'limga muassasalarida hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish orqali fanlarni o'qitish metodologiyasini modernizatsiyalash zaruratin ushbu maqolada yoritib bergen. Binoban, O'zbekiston jadidchi olimi Abdulla Avloniyning o'z davrida bilim berishning zamonalvylashtirish haqidagi qarashlari keltirib o'tilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda mavjud nodavlat ta'limga muassasalarasi asosan repetitorlik markazlari faqatgina olyi o'quv muassasalarini kirish imtihonlariga yoki xalqaro (IELTS, TOEFL, GMAT kabi) imtihonlarga talabgorlarni tayyorlash bilan cheklanib qolayotganligi va ta'limga sifatini modernizatsiyalashning xorijiy davlatlar tajribalari asosida o'rganilib, O'zbekistonda mavjud bo'lgan repetitorlik muassasalarida joriy etishning samarali usullari haqida ham fikr bildirib o'tilgan.*

*Аннотация*

В данной статье основное внимание уделяется модернизации образования в негосударственных учебных заведениях, повышению качества образования и, через это, формированию необходимых знаний и навыков у учащихся. В то же время указывается на необходимость эффективного внедрения данной методики в образовательную систему Узбекистана. В этой статье подчеркивается необходимость модернизации методологии преподавания предметов путем обучения жизненным навыкам в негосударственных учебных заведениях, в то время как Узбекистан добился ряда достижений в области образования, чтобы соответствовать высококачественным образовательным стандартам, включая непрерывное образование, инклюзивное образование и гендерное равенство. В связи с этим были упомянуты перспективы работы ученого-джадида из Узбекистана Абдуллы Авлани по модернизации образования с учетом его жизненного опыта. Кроме того, существующие в Узбекистане негосударственные учебные заведения в основном основаны на том факте, что репетиторские центры ограничиваются только подготовкой абитуриентов к вступительным экзаменам в высшие учебные заведения или международным (таким как IELTS, TOEFL, GMAT) экзаменам. Также, соответственно, были предложены исследования опыта зарубежных стран по модернизации качества образования.

*Abstract*

*This article mainly focuses on the modernization of education in non-governmental educational institutions, improving the quality of education and, through this, the formation of the necessary knowledge and skills in students. At the same time, the need for effectively introducing this methodology in the educational system of Uzbekistan is introduced. This article highlighted the high demand to modernize the methodology of teaching subjects by teaching soft skills in non-governmental educational institutions, while Uzbekistan has obtained a number of achievements in education to fit high-quality educational standards such as providing sustainable education, supporting inclusive and gender equality. Consequently, the perspectives of the jadid scholar of Uzbekistan, Abdullah Avlani's work, were cited on the modernization of education considering his life time being. Additionally, the existing non-governmental educational institutions in Uzbekistan are mainly based on the fact that majority tutoring centers in Uzbekistan are limited by only preparing applicants for higher educational institutions' entrance exams or international exams such as IELTS, TOEFL, GMAT. This article also discusses studies on the experiences of foreign countries to modernize the quality of education in their country.*

## TILSHUNOSLIK

**Kalit so'zlar:** ta'lim sifatini modernizatsiyalash, hayotiy ko'nikmalar, nodavlat ta'lism muassasaları, repetitorik markazlari, milliy va xalqaro imtihonlar.

**Ключевые слова:** модернизация качества образования, жизненные навыки, негосударственные учебные заведения, репетиторские центры, национальные и международные экзамены.

**Key words:** modernization of the quality of education, soft skills, non-governmental educational institutions, tutoring centers, national and international exams.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi "Nodavlat ta'lism xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-tonli Qarori [7] ta'lim sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish zarurligini e'tirof etdi. Shunday qilib bugungi kunda nodavlat ta'lism muassasalarida ta'lim sifatini oshirish zaruriyati, nafaqat davlat ta'lism muassasaları balki nodavlat ta'lism muassasalariga, ayniqsa repetitorlik markazlariga, ham yuklatishimiz kerak. Bu esa o'quvchilarining o'zlashtirishini takomillashtirish uchun ilg'or strategiyalarni va dasturlarni ishlab chiqishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22-fevral 2021-yil 88-tonli qarorida nodavlat ta'lism muassasaları, shuningdek, xususiy o'quv dargohlari va repetitorlik markazlari o'zlarining individual dasturiga ega bo'lishlari kerakligi belgilab qo'yilgan. O'quv markazlari dasturni o'zları yaratib taqdim qilishlari mumkin yoki chet el o'quv dargohlarining dasturlaridan foydalanib faoliyatini qonuniylashtirishlari ham mumkindir. Hozirgi kunda asosan xususiy universitetlar, xususiy mакtabat chet-el universitetlarning o'quv dasturlaridan foydalanib kelishmoqda.

## ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasining amaldagi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'limni modernizatsiyalash jarayoniga alohida e'tibor bermoqda. Prezidentimiz ta'limni modernizatsiyalash to'g'risida biq qator qarorlari qabul qilindi. Bu qarorlarda, talabalar va o'qituvchilarga ta'lism olish uchun yaxshi sharoitlar yaratib berish, ta'lism sohasidagi yangiliklarni amalga oshirish, oliygochlari va universitetlarni texnik resurs bazalarini yangilash va boshqa muhim masalalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari prezidentimiz Shavkat Miromonovich tashabbusi bilan, 41 oly o'quv dargohiga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi, o'quv dargohlarda transformatsiya ofislari ochildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oly ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-tonli Farmonida O'zbekiston yoshlarini innovatsion bilim va ko'nikmalarni egallashida, kelajakda zamonaviy kasb egalari bo'lishida ta'lism sifati jahon standartlariga mos ravishda bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, texnika-tehnologiya rivojlangan, globallashuv jarayoni tezlashgan zamonda yoshlarimizda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish zaruratga aylandi, bu esa mamlakatimiz rivojlanishiga, raqobatdosh yoshlarimizni ko'payishiga va O'zbekistonni rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishiga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ta'lism sifatini oshirishning bunday zarurati ta'limming har bir bosqichida, o'quv dasturlarini takomillashtirishda, pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishda va o'qituvchilarning tayyorlanishida ko'zga tashlanishi kerak.


## Ta'lism sifatini modernizatsiyalash nima ?

Ta'lism sifatini modernizatsiyalash ta'lism tizimlarini va dasturlarini zamonaviy va o'zgaruvchan talablarga mos ravishda yangilash va rivojlantirish jarayoniga aytildi. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish, o'quv jarayonlarini yanada samarali va interaktiv qilish, ma'naviy-ma'rifiy ta'minotni kuchaytirish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ta'lism sifatini modernizatsiyalash jarayonida boshqa mamlakatlar, soha ekspertlari va o'quvchilar o'rtasida muloqotlar, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida munosabatlarni yanada yaxshilash, yutuqlarni rag'batlantirish, hamda talabalarni zamonaviy dunyoga tayyorlashda katta o'rin o'ynaydi. Ta'lism sifatini modernizatsiyalashning asosiy maqsadi, o'quvchilarning ilmiy salohiyatini rivojlanishda va ularga zamonaviy kasblarni o'rgatishda amaliy yordam berishdir.

Ta'lism sifatini zamonaviylashtirishda savodxonlikni oshirish, uzlyuksiz ta'lism olish, inklusiv va gender teng huquqlikni ta'minlash, hayotiy ko'nikmalarini o'zlashtirish kabi jihatlarni kasb etadi. Bunday qarashlar O'zbekistonda avvallari ham jadidchi olimlari tomonidan ko'p marotaba e'tirof etilgan, jumladan Abdulla Avloniyning (1916) "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida uzlusiz ilm olishga q'uyidagi misralarida alohida urg'u berib o'tilgan.

*Talab aylamak farzdur bizda ilm  
Bu amr uzradur er-hotun, yosh, chol.*

Bu misralarda Abdulla Avloniy (1916) odamlarda ilm olishga yosh, gender jihatdan chegara yo'qligini ta'kidlamoqda. Demak, 1916 yillarda bizning jamiyatda allaqachon uzlusiz ta'lif, ilm olishda gender tenglik kabi qarashlar mavjud bo'lganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.



E'tirof qilish joizki, O'zbekiston Respublikasining amaldagi prezidentini ta'lifni modernizatsiya qilish va o'qitish sifatini oshirishga doir bir qator qarorlar qabul qildi. Binobarin, Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasida ta'lif sifatini oshirish O'zbekistonning oldiga qo'ygan oly maqsadi va taraqqiyot sari yakka-yu yagona to'g'ri yo'l ekanligini aytdi, va "...bu yo'ldan aslo to'xtamaymiz" deb ta'kidladi.

*Repetitorlik markazlarida ta'lif sifatini modernizatsiyalash nima uchun kerak?*

Nodavlat ta'lif muassasalarida ham ta'lif sifatini modernizatsiyalash zarurati, o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishga, ma'naviy va amaliy yuksalishiga, va mustaqil fikrlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Repetitorlik markazlarida ta'lif sifatini modernizatsiyalash zarurati, eskicha o'qitishdan voz kechishni va aksincha har bir darsga innovatsion yondashishni talab qiladi. Bu zarurat o'quv jarayonlarini rivojlantirishga, o'quvchilarning ma'lumotlari va ko'nikmalarini takomillashtirishga, ijtimoiy va professional rivojlanishlarini ta'minlashga, hamda ularga zamonaviy ko'nikmalar va mahoratlarini o'sishiga olib keladi. Ta'lif sifatini modernizatsiyalash, yangi talablar va global integratsiyaga moslashish, raqobatbardosh bo'lish, taraqqiyotga muvofiq zamonaviy malakani rivojlanish kerakligini ko'rsatadi. Shuningdek, davlat va nodavlat ta'lif muassasalarida o'quvchilarni o'z kasbining yetuk mutaxasisi sifatida shakllantirish vazifasini o'z ichiga oladi.

Ta'lif sifatini modernizatsiyalash zarurati deganda har bir ta'lif muassasalarini o'zining o'qitish dasturlarini hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar bilan boyitish kerakligini nazarda tutilgan. Nima uchun nodavlat ta'lif muassasalarini, aniqrog'i, repetitorlik markazlarida ham bu jarayonni amalga oshirishimiz kerak? Eng avvalo shuni bilish joizki, davlat o'quv dargohlarida ta'lifni modernizatsiya qilish O'zbekiston Respublikasi prezidenti farmonlari va

## TILSHUNOSLIK

vazirlar mahkamasining bir necha qarorlari bulan belgilab qo'yilgan. Demak, har bir bilim beruvchi shaxs o'z fanining sillabusini tuzar ekan hozirgi zamon o'qitish texnologiyasini qo'llab dars rejasini tuzadi va ta'lif muassasasi ilmiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinnbosari tomonidan tasdiqlanadi. Ammo, repetitorlik markazlarida bunday holat mavjud emas. Avval ta'kidlab o'tilganidek, O'zbekistonda repetitorlik markazlari tadbirkorlikning bir ko'rinishi hisoblanib, davlat ta'lif organlari tomonidan nazorat qilinmaydi. Shunday ekan, O'zbekistondagi 1298 nodavlat o'quv markazlari tadbirkorlik subyekti hisoblanadi va o'qitish sifati uchunchi tomon talabgorlarning imtihon natijasi orqali baholanadi. O'zbekistondagi 144 oquv dargoh repetitorlari so'rov qilinganda ularda asosan DTM milliy imtihonlariga tayyorlov kurslari o'qitilishi ta'kidlangan. 136 o'quv markazlarda chet tili, asosan ingliz tili, xalqaro sertifikat olish imtihonlariga o'qitilishi aniqlangan. Bundan tashqari "Ibratli kelin", "Mashhura", kabi o'quv markazlari ham mavjud va ularda asosan yoshlar kasb-hunar o'rganishadi.

DTM milliy imtihonlarida talabgorlar ikkita asosiy yo'nalish fani va uchta majburiy fandan imtihon topshiradilar. Shuning uchun repetitorlar mana shu beshta maktab dasturidagi fanlarni intensiv o'qitadilar. Repetitorlik markazlari o'zining o'qitish dasturiga ega bo'lsa-da, mактабда o'qitiladigan kitoblarni milliy imtihonga tayyorlash kurslarida ishlatalishadi, chunki DTM imtihonida maktab dasturidan test-savollar tuziladi. Repetitorlarning asosiy vazifasi doimiy takrorlash orqali o'quvchi-abituriyentda bilimlar ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. *Breyning (2018)* ta'kidlashicha, bilimni takrorlash, qayta tushuntirish repetitorlikning ijobiy holati bo'lib, orqada qolgan o'quvchilarga o'quv dasturni o'zlashtirishga yordam beradi. Avvallari bu vazifani onalar bajarardi. Endilikda, aksariyat onalarning ishlashi, farzand bilan shug'ullanishga vaqt yoqligi, ikkinchi tomondan maktab dasturi murakkablashib ota-onalar uya berilgan vazifani tushunmasligi sabab qilib keltiriladi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Repetitorlikning salbiy tomoni repetitorlar mavjud bilimlarni bola ongida saqlanib qolishga yordam beradilar, ammo yangi bilim va ko'nikmalarni o'rgatmaydilar. Repetitorlarning fikricha, ortiqcha bilim o'quvchi-abituriyentlarni chalg'itadi va miyalarini boshqa keraksiz (imtihonda talab qilinmaydigan) bilimlar bilan to'ldiriladi, natijada talabgor imtihonda yuqori natijaga erishmasligi mumkin.

Xalqaro imtihonga tayyorlovchi o'quv markazlari ham deyarli shu metodikani qo'llaydilar. 20 yillik tajribaga ega bo'lgan "OPUS" ingliz tili o'quv markazining direktori Ahurova Malikaning ta'kidlashicha, o'quv markazlarida o'qitish tendensiyasi asosan imtihonda natija olishga qaratilgan. Shuning uchun repetitorlar talabgorlar bilan namunaviy imtihon savollarini ustida ko'p ishlaydilar. Bundan maqsad, albatta, ularda ko'nikma hosil qilishdir. "Talabgor IELTSdan 8 ball olishi mumkin ammo hayotiy vaziyatlarda ana shu o'quvchi o'z fikrini ingliz tilida ifoda etib berolmasligi ham mumkin" deydi.

## XULOSA

Yuqoridaq dalillardan kelib chiqqan holda, umumjahon ta'lif standartlariga erishish uchun ta'lifni modernizatsiyalash, inkiyusiv va gender tenglikka erishish zarurati O'zbekistonda qadimdan jadidchi olimlar tomonidan ta'kidlanib kelingan. Bunday talablar yurtimizda nafaqat davlat o'quv muassasalarida balki nodavlat o'quv muassasalarida ham amalga oshish kerak zarurati kelib chiqmoqda. Ko'plab xorijiy davlatlarda, jumladan Yaponiya, Xitoy, Koreya bunday amaliyot allaqachon ishga tushib o'z natijalarini ko'rsatmoqda.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

7. Abdulla Avloniy. "Turkiy Guliston yoxud axloq", 1916
8. Mark Brey. "SOYADAGI TALIM BILAN YUZMA-YUZ: Davlat xususiy qo'shimcha o'qitishning qaysi turlari bilan cqanday tartiblar o'matmog'i lozim?" Xalqaro ta'lifni rejalashtirish instituti, 2009
3. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15 sentyabrdagi "Nodavlat ta'lif xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ – 3276-sonli Qarori [7:]
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 22-fevral 2021-yil 88-sonli qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oly ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni